



## XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 26-fevral

VII-6-36-4-57-K/25

Dehqonobod tumani

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

Tumanni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, yashil tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoniga asosan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

### **QAROR QILDI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dehqonobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Usmonovni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijrosi bo‘yicha axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Dehqonobod tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "drayver" loyihalarni amalga oshirish uchun dastlabki manzilli ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

Belgilansinki:

-Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Usmonov, O.Boyto‘rayev, M.Yuldashova, Z.Bo‘tayev, Sh.Raximov va S.Maxmudov)lar tegishli korxon va tashkilotlar rahbarlari

“Zarbdor” tajribasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishiga mas’ul bo‘ladi.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari va sektor rahbarlari “Zarbdor” tajribasida belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini doimiy nazorat qilib borsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari Dastur ijrosi bo‘yicha har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etib borsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



BOYSARIYEV  
G‘AYRAT  
HAYITQULOVICH

Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashining  
2025-yil 26-fevraldagi  
VII-6-36-4-57-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Dehqonobod tumanida "Zarbdor" tajribasi asosida shakllantirilgan "drayver" loyihalarni amalga oshirish uchun  
DASTLABKI MANZILLI RO'YXATI**

№	"Drayver" loyihalar nomi va manzili	MFY nomi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha nomi	Ish turi	Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni	Loyiha quvvati jami		shu jumladan		Loyiha (ob'ekt)ning dastlabki qiymati (mln so'm)	shundan		
						O'lov birligi	Miqdori	yangi qurilish	rekonstruksiya		Respublika budjeti	Mahalliy budjet	
	<b>Dehqonobod tumani</b>				5					<b>9 790</b>	<b>9 790</b>		
1	Tumanning "Do'stlik", "Istiqlol" va "Nodira" MFYlari hududidan o'tgan "Mirzo Ulug'bek" ko'chasining 3 km qismida 24/7 rejimida faoliyat yuritadigan savdo va	Istiqlol MFY	Yo'l infratuzilmasini yaxshilash	Asfialtlash	1	km	3,0	3,0		2 720	2 720		
			Obodonlashtirish va ko'kaalmzorlashtirish	lotoklar o'rnatish		1	km	3,0	3,0		200	200	
				piyodalar yo'lagi qurish		1	km	3,0	3,0		2 400	2 400	
				ko'cha chiroqlari o'rnatish		1	dona	60	60		180	180	

	xizmat ko'rsatish shaxobcha (ko'chma dukon)lar tashkil etish.											
2	Tumandagi sel suv omboridan suv chiqarish hisobiga sel suv ombori atrofidagi 960 gektar yer maydonlarini o'zlashtirish . 1-bosqichda 200 gektar lalmikor yer maydonini o'zlashtirish .	Ayridev ol MFY	Elektr tarmoqlari tortish	Transformator o'rnatish	1	dona	1	1		50	50	
			Yo'l infratuzilmasini yaxshilash	Asfaltlash (shag'allashtiri)	1	km	2,5	2,5		200	200	
			Sug'orish suvi bilan ta'minlash	Nasos o'rnatish	1	dona	1	1		1 500	1 500	
				Sug'orish tarmoq tortish		km	2,5	2,5		1 700	1 700	
				Lotok o'rnatish		km	1,0	1,0		340	340	
				Geomebrana , suv saklash uchun xovuz		tn	400	400		500	500	